

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TEMPERAMENT TIPINI ANIQLASHNING PSIXOMETRIK JIHATLARI

Aliyeva Maryam Umidjon qizi

Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti "Pedagogika va psixologiya"

Kafedra psixologiya yo'nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy raxbar: Qo'qon universiteti

Ta'lim fakulteti "Pedagogika va psixologiya"

Kafedra katta o'qituvchisi

Ashurova Gulruxon Oxunovna

Annotatsiya: Mazkur tezisning maqsadi boshlang'ich maktab bolalaridagi temperamentni o'rganish edi. Shuningdek, temperamentni jins va sinfga nisbatan tekshirish maqsad qilingan. Ushbu tezisdagi boshlang'ich sinif o'quvchilarida temperament turlarining namoyon bo'lishining dastlabki belgilariga oid ilmiy tahlil va amaliy tavsiyalar keltirilgan. Temperament — bu bolalarning tug'ma xususiyatlari bo'lib, ularning atrof-muhitga qanday javob berishini va o'zaro aloqalarini belgilaydi. Tezis temperamentning to'rt asosiy turi: sangvinik, holerik, melanxolik va flegmatik haqida batafsil ma'lumot beradi hamda ularning boshlang'ich sinif o'quvchilarida qanday namoyon bo'lishi, o'qituvchilar va ota-onalar uchun qanday amaliy ahamiyatga ega ekanligi tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: Temperament, boshlang'ich sinif, bolalar rivojlanishi, hissiy intellekt, shaxsiy rivojlanish, pedagogik yondashuv, bolalar psixologiyasi.

Annotation: The aim of the present research was to study the temperament of primary school children, with particular attention to its relationship with gender and grade level. This article provides a scientific analysis and practical recommendations concerning the early signs of different types of temperament in primary school students.

Temperament is defined as children's innate characteristics that influence how they respond to their environment and interact with others. The article gives detailed information about the four main types of temperament — sanguine, choleric, melancholic, and phlegmatic — and explains how these are expressed in children of primary school age.

Keywords: Temperament, primary school, child development, emotional intelligence, personal development, pedagogical approach, child psychology.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi Respublikamizda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayni paytda ushbu tizimda, mas'uliyatli, irodali, o'z kasbiga sadoqatli, fidoyi

kadrlarni yetishtirish vazifasini qo‘ymoqda. Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyotida yuz berayotgan keskin o‘zgarishlar sifat jihatidan yangi va nisbatan murakkab bo‘lgan vazifalarni qo‘yadi, bunda shaxs intellektining rivojlanish darajasi, uning aqliy imkoniyatlari regulyatori, axloqiy jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda barcha sohalarda bo‘lgani kabi ilm-fan sohasiga shu jumladan, psixologiya faniga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Aynan shaxsning o‘zini anglashi, o‘zligini tushunish, inson xarakteri, temperamentini shakllanishi bolaligidanoq rivojlanib boradi. Psixologiya fanida insonning psixologik xususiyatlaridan temperamentning to‘laqonli yoritib berilishini ko‘rishimiz mumkin.

Temperament, psixologik jihatdan olganda, kishidagi hissiyotning qo‘zg‘alishlarida va kishidagi umumiy harakatchanlikda ko‘rinadigan individual xususiyatdir. Har qaysi kishidagi hissiyotning qo‘zg‘alish tezligi, kuchi va barqarorligi har xil bo‘ladi. Ba’zi insonlarning hissiyoti tez, kuchli qo‘zg‘aladi va barqaror bo‘ladi. Ba’zi kishilarda esa bunday qo‘zg‘alish sust, zaif bo‘lib, uzoqqa bormaydi. Temperamentning bunday xususiyatlari kishidagi hissiyotning qo‘zg‘alishlari bilan birga, organizmning atrofdagi muhit ta’siriga javoban ko‘rsatadigan ixtiyorsiz reaksiyalarida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu xususiyatlar tashqi tomondan kishining mimikalarida, pantomimikalarida, beixtiyor ishharakat va imo-ishora-larida ko‘rinib turadi. Kishi hissiyotining bunday qo‘zg‘aluvchanlik xususiyatlari diqqatning kuchi va barqarorligida, iroda sifatlarida, aqliy jarayonlar, jumladan, nutq tezligida aks etadi. Mana shunday ixtiyorsiz faollikning qanday yuz berishiga qarab, ba’zi insonlarni “tez”, “betoqat”, “serg‘ayrat”, “jo‘shqin” deb ataymiz. Ba’zilarini esa «sustkash», «lapashang» va hokazolar deb yuritamiz. Bu xildagi individual xususiyatlardan kishining temperamenti (mijozi) tarkib topadi. Ayrim temperamentlarning alomatlari kishining bolalik chog‘larida yaqqol namoyon bo‘ladi. Insonning ruhiy olami beto‘xtov harakatlar majmuasidan iborat bo‘lib, biri ikkinchisini bevosita taqazo etadi va ular uzluksiz zanjir tizimiga o‘xshash tarzda hukm suradi. Xuddi shu bois shaxs ruhiyatida tashqi atrof-muhit to‘g‘risidagi ta’surotlar, o‘tmish xotiralari, kelajak yuzasidan ijodiy xayollar, ezgu niyatlar, xohish-istaklar, maqsad va tilaklar, mulohaza, fikr va muammo, hissiy kechinmalar, irodaviy sifatlar uzluksiz tarzda o‘zaro o‘rin almashtirib turish evaziga ontogenetik dunyoga mustahkam negiz hozirlanadi. Ruhiy olam kechishi, uning sur’ati, mazmuni, shakli, ko‘lami, xususiyati, xislati, sifati, mexanizmi alohida, yakkahol insonda rang-barang tarzda namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, insonlar tabiat hodisalariga, ijtimoiy turmush voqeliklariga, omillari-ga, ta’sir kuchlariga tez yoki sekin, engil yoki mushg‘ulot bilan javob qaytarishga moyillik ko‘rsatadilar.

Temperament – bu inson faoliyati va hulq-atvorining dinamik va emotsional holatini xarakterlovchi shaxs individual xususiyatlarining yig‘indi. SHunday qilib, temperament ikki tarkibiy qism – faollik va hissiyotlilikka ega. Hulq-atvorning faolligi

harakatchanlik, intiluvchanlik, tezlik, yoki, aksincha, sustlik va harakatsizlik darajasini xarakterlaydi. O'z navbatda emotsionallik belgi (ijobiy va salbiy) modallik (shodlik, qayg'u, qo'rqinch, g'azab va boshqalar)ni aniqlagan holda emotsional jarayonlar kechishini xarakterlaydi. Hozirgi davrda temperament tipi deganda, ma'lum insonlar guruhi uchun umumiy bo'lgan xususiyatlarning sodda majmuasi emas, balki mazkur xususiyatlarning qonuniy, zaruriy o'zaro bog'liqligi tushuniladi. Temperament tipini tavsiflovchi xususiyatlarning qonuniy tarzda o'zaro bog'liqligi quyidagicha aks etishi mumkin. Turli temperament tipiga mansub insonlarda har xil xarakter xususiyatlari, shaxs sifatlari, holatlari ro'y beradi. Temperament tiplariga mos xususiyatlarni muhimlari quyidagicha aks ettiriladi. Sangvinik yuksak reaktivlik. Bo'lar-bo'lmas narsalarga qattiq xoxolab kulaveradi. Muhim bo'lmagan fakt qattiq jahlini chiqaradi.

Adabiyotlar tahlili:

I.P.Pavlov 4 ta asosiy tiplarni ajratadi. Ular:

1. Kuchli, muvozanatsiz, va harakatchan tip;
2. Kuchli, muvozanatli, inert
3. Kuchsiz, muvozanatsiz- qizg'in, jo'shqin tip
4. Kuchsiz, muvozanatsiz, og'ir – vazmin.

Nemis faylasufi Iogan Kant – temperamentni tana tuzilishi va fiziologik vazifalarini o'rgangan. Shuningdek nemis psixiatri, konstitutsion nazariya asoschisi E. Krechmer 1921- yilda tana va xarakter tuzilishi nomli asarida temperament tipologiyasini ishlab chiqdi. Unga ko'ra: 1. Leptosomatiklar- mo'rt tana, baland bo'y, yassi ko'krak qafasi, tor yelka, uzun va oriq oyoq, qo'l; 2. Piknik- yog' to'qimasi bor, o'ta semiz, o'rta yoki past bo'y, katta qorin; 3. Atletik- baquvvat mushaklar, kuchli tana, baland yoki o'rta bo'y, keng yelka, tor bo'ksa; 4. Displastik- shaklsiz, noto'ri tana, o'ta baland bo'y, mutanosib bo'lmagan tana kabilar keltirib o'tilgan. Demak, temperamentlarni mana shunday umumiy belgilarga qarab ajratish, mumkin. Barcha temperamentlarni qadimdan 4 ta tipga: xolerik, sangvinik, flegmatik va melanxolikka ajratish keng tarqalgan. Xolerik tip- hissiyotning tez va kuchli qo'zg'aluvchanligi, barqaror bo'lishi bilan farqlanadi. Xolerik temperamentlimkishilarning hissiyotlari ularning imo-ishoralarida, mimikalarida, harakatlari va nutqlarida yaqqol ko'rinib turadi. Xoleriklar qizg'inlik va tajanglikka moyil bo'ladilar. Bunday temperamentli kishilar chaqqon, umuman harakatchan bo'lishadi. Sangvinik tip- hissiyotning tez, kuchli qo'zg'aluvchanligi, lekin beqaror bo'lishi bilan farq qiladi. Sangvinik tipli kishilarning kayfiyati tez-tez o'zgarib, bir kayfiyat o'ziga teskari bo'lgan ikkinchi bir kayfiyat bilan tez almashib turishi mumkin. Ular chaqqon, serharakat va jo'shqin bo'lishadi. Atrof- muhitdagi voqealardan tez ta'sirlanadi va muhitga moslashuvchan bo'lishadi.


Melanxolik tip - barqaror, sustkash, davomli bir kayfiyatga moyil bo'ladilar.

Melanxolik temperamentli odam ishga birdan kirishmasligi mumkin, lekin bir kirishsa, boshlagan ishini oxiriga yetkazmay qo'ymaydi. Bunday temperamentli bolalar mo'min-qobil, yuvosh bo'ladilar, ko'pincha, birov savol bilan murojaat qilisa, uyalib, tortinib javob beradilar. Flegmatik tip- odamlarni xursand qilish, xafa qilish yoki g'azablantirish ancha qiyin. Bu tipli kishilar hissiyotining tashqi ifodasi kuchsiz bo'ladi. Ular ko'pchilikka kam aralashadigan, tortinchoq, birovni ranjitmaydigan bo'lishadi. Temperament tushunchasini rasmlar orqali ifodalash qadimdan mavjud bo'lib, u inson xarakterini tasvirlash uchun turli san'at yo'nalishlarida qo'llanilgan.


Misol uchun antik davri (miloddan avvalgi 4-3- asrlar)ning Qadimgi yunon faylasufi Gippokrat temperament turlarini asoslab bergan. Uning ta'limotidan keyin rassomlar va haykaltaroshlar turli temperamentdagi odamlarning tashqi ko'rinishini aks ettirishga harakat qilishgan. O'rta asrlar (5-15-asrlar)da temperament diniy va falsafiy ta'limotlar bilan bo'langan. Ko'plab miniatura rasmlarda odamlarning yuz ifodasi va tana holatlari orqali temperament aks ettirilgan. Bularga misol qilib, mana bu rasmni keltirishimiz mumkin. Bu haykallar temperament nazariyasiga vizual ifoda sifatida qaratiladi.



Chapdan birinchisi-xolerik: g'azablangan, qattiq va keskin ifodaga ega, energiya va tajavuzni bildiradi. Ikkinchisi-melanxolik: chuqur o'ychan, mahzun ko'zlar bilan qayg'u va iztirorobni aks ettiradi. Uchinchisi- sangvinik: yuqoriga qaragan, yengil tabassum bilan, optimizm va quvonchni ifodalaydi. O'ngdan birinchisi- flegmatik: xotirjam, beparvo yoki osiyishta- barqaror va vazminlikni bildiradi. Uyg'onish davri (15-16-asrlar) rassomlari inson xarakteri va temperamentini chuqur o'rganishga kirishgan. Misol uchun Leonardo da Vinchi o'z eskiz va portretlarida turli temperamentdagi insonlarni realistik tarzda tasvirlashga harakat qilgan. Leonardo da Vinchi – "Mona Liza" (1503-1506) asarida Mona Liza flegmatik temperamentni aks ettiradi, chunki u xotirjam, o'zgarmas hissiyotli va o'zini tuta biladigan ko'rinishda tasvirlangan. Uning tabassumi juda sirli, hissiyotlari juda chuqur yashiringan bo'lib, u ehtirosli yoki qattiq kayfiyat o'zgarishiga ega emas.



Barokko va klassitsizm (17-18-asrlar) davri rassomlari hissiyot va temperamentni kuchli dramatik ifoda orqali yetkazganlar. Misol uchun bu na'munani keltirishimiz mumkin. Bu asar XVII asrga tegishli bo'lib, muallifi Sharl Lebryon hisoblanadi. Bunda chapdan birinchisi xolerik temperamentga ega bo'lib, qattiq harakatdagi jangchi, qalqon va qilich bilan tasvirlangan. Yonida sher taviri ham bo'lib, bu jasorat va tajovuzni bildiradi. Ikkinchisi sangvinik tipga ega: yengil, o'ychan va quvnoq holatda, nay chalib turibdi. Ochiq gavda va bo'shashgan kiyim kayfiyatining yengilligini bildiradi. Uchinchisi- melanxolik. U kitob yoki varaqqa qarab, chuqur o'yga tolib turibdi. Yuz ifodasi g'amgin, boshi engashgan. O'ngdan birinchisi esa flegmatik. Xotirjam, qo'llari ko'kragiga chalishtirilgan holda, sovuqqon turibdi. Kiyimlari tartibli va og'ir xarakatni bildiradi. Shuningdek, mana bu asarni ham keltirishimiz mumkin. Bu rasm XVIII asrning taniqli nemis-fransuz rassomi Daniel Chodowiecki tomonidan chizilgan bo'lib, "To'rt xil temperamentga sezgirlikning ta'sir" deb nomlangan.



Unda chap tarafdagi o'tirgan odam- xotirjam va deyarli befarq holda tasvirga qaramoqda. Bu flegmatik temperament vakili. O'rtada turgan ikki kishi qizg'in muhokama qilayotgandek ko'rinadi. Ulardan biri qo'llarini ishora bilan harakatlantirayotgani uning xlerik temperament ekanligini ko'rsatadi, chunki xoleriklar te'z ta'sirchan, hissiyotlarini ochiq namoyon qiladigan va kuchli reaksiyaga ega bo'ladigan kishilar bo'ladi. Rasmga befarq bo'lgan kishi- sangvinik temperamentga ega bo'lishi mumkin. Chunki sangviniklar quvnoq, yengil harakterli, optimistik va hayotdan zavqlanadigan odamlar hisoblanadi. Zamonaviy san'at (19-20-asrlar) davrida ekspressionizm va psixologik portret janri rivojlanib, temperamentni tushuntirishga urinish kuchaydi. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, temperament- insonning tabiiy psixik xususiyatlarining asosi hisoblanadi. Biror temperament turi yaxshiroq yoki yomonroq emas, har biri o'ziga xos kuchli va zaif jihatlarga ega.

Xulosa

Temperament – bu bolalarning individual rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi muhim psixologik omildir. Boshlang'ich sinf davrida o'quvchilarda temperament xususiyatlari to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, ular ta'lim va tarbiya jarayonida sezilarli rol o'ynaydi. Ayniqsa, o'qituvchilar va ota-onalar temperament turlarini hisobga olgan holda yondashsalar, bolalarning psixologik holati, o'zini ifodalash darajasi va ijtimoiy moslashuvi ancha yaxshilanadi. Shu sababli, temperamentni aniqlash va unga ko'ra individual yondashuvlarni ishlab chiqish zamonaviy ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari bu yo'nalishda psixologik xizmat faoliyatini yanada takomillashtirishga ilmiy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- Айзенк Г.Ю. (1995). *Структура личности и измерение темперамента*. Москва: Прогресс.
- Boqijonov, Sh. (2010). *Psixologiya asoslari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
- Karimova, B.T. (2017). *Yosh davrlari psixologiyasi*. Toshkent: Fan.
- Nishonova, S.T. (2020). *Ta'lim jarayonida temperament turlarining ahamiyati*. Toshkent: O'qituvchi.
- G'oziyev, E. (2002). *Bola psixologiyasi*. Toshkent: O'qituvchi.
- Davletshin, M.S. (1980). *Psixologiya darslik*. Moskva: Pedagogika.
- Асмолов А.Г. (2001). *Психология личности*. Москва: Академический проект.
- Сапогова Е.Е. (2002). *Детская психология*. Москва: Владос.
- Ashurova, G. (2023). *Boshlang'ich ta'limda psixologik yondashuvlar*. Qo'qon: Qo'qon universiteti nashriyoti.

Foydalanilgan internet manbalar

- 1) <https://ijip.in/wp-content/uploads/2024/10/18.01.315.20241203.pdf>
- 2) <https://files.eric.ed.gov/fulltext/ED622977.pdf>